EKMA ZA’FARONNI EKISH VA KO‘PAYTIRISH

N.M.Ibragimova, katta o‘qituvchi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti,muminovna83@mail.ru

SH.O.Ro‘ziboyeva, magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti,roziboyevashahribonu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekma za’faronning biologik xususiyatlari, o‘simlikni ekish uchun yer tanlash va uning talablari, iqlim va tuproq sharoitlari, ekma za’faronni ekish va ko‘paytirish haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Crocus sativus*, edafik sharoit, generativ faza, tuganakpiyozlar, agrotexnik tadbirlar, irrigatsiya tizimi.

Annotation: This article provides information on the biological characteristics of cultivated saffron, site selection and its requirements for planting, climate and soil conditions, as well as the methods of planting and propagation of cultivated saffron.

Keywords: Crocus sativus, edaphic conditions, generative phase, corms, agrotechnical measures, irrigation system.

Аннотация:В данной статье представлены сведения о биологических особенностях культурного шафрана, выборе земельного участка и его требованиях для посадки, климатических и почвенных условиях, а также о методах посадки и размножения культурного шафрана.

Ключевые слова: Crocus sativus, эдафические условия, генеративная фаза, клубнелуковицы, агротехнические мероприятия, ирригационная система.

Kirish. Yildan yilga aholi soni ortib borayotganligi sababli dorivor, xushbo‘y ziravor, oziq -ovqat o‘simliklari xomashyosinining xilma xilligini ko‘paytirish talab etilmoqda. Shu bilan birga aholi talabini qondirish maqsadida tabiiy dori-darmon vositalari, yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarinining 60-65 foizini dorivor o‘simliklar xom ashoyolaridan olingan preparatlar tashkil etib bugungi kunda jahon

bo‘yicha dorivor, oziq – ovqatbop, xushbo‘y ziravorlik xususiyatlarini saqlovchi o‘simliklarni yetishtirish, ko‘paytirish hamda plantatsiyalarini tashkil etib ishlab chiqarishga jalb etishga alohida e’tibior berilmoqda .

Biologik xususiyatlari: Za’faron o‘simligi tur va turkumlarning ichida eng diqqatga sazavor hamda barcha o‘simliklar va ziravorlarning istiqbolli o‘simlik bo‘lib, o‘simliklarning shoxi deb tan olingan.

Ekma Za’faron (C.Stivus L.)-Gulsafsardoshlar oilasi Iridaceae oilasi crocus l. turkumiga mansub tuganakpiyozli, ko‘p yillik o‘simlik hisoblanib, C.Cartwightianus Herbert turning diploid xromosomalarning triploida o‘zgarishi hisobiga kelib chiqqan tur hisoblanadi. Crocus L. turkumi va uning tarkibidagi C. Cartwightianus turi 9 ta turni o‘z ichiga oluvchi Crocus selleksiyaga mansub:C. Cartwightianus va uning hosilasi C.hadriaticus,C.asumanie va C.mathewii turlaridan tashkil topgan. O‘simlikning sistematikasida qayd etilgan barcha turlarning orasida faqatgina ekma Za’faron (C. Stivus L.) o‘simligi alohida plantatsiya holatida ekiladi, gulchangchi (hom ashyo)lari foydaliligi jihatidan ishlatiladi .

O‘simlikni ekish uchun yer tanlash va uning talablari: Ekma za’faron yorug‘sevar o‘simlik bo‘lib, tuganakpiyozlarni respublikamiz iqlim sharoitida avgust oyida ekish maqsadga muvofiq. Sabab, shu vaqtda tuproq yuzasida kunduzi va kechki qizish ko‘rsatkichi 40-45 ° C dan oshmaydi. Tuganakpiyozlar tuproqqa ekilgandan keyin maydon zahlatib sug‘orilishi bilan, tuproqdagi o‘rtacha harorat 23-28 °C ni tashkil etadi. Bu sharoit ekma za’faron tuganakpiyozlarining unish jarayonining boshlanishi va jadal kechishi uchun optimal hisoblanadi.

Iqlim va tuproq sharoitlari: Ekma za’faron o‘simligini ekish va ko‘paytirish borasida ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda ushbu hududda havo nisbiy namligi yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, ekma za’faron (shafran) o‘simligini ko‘paytirish uchun ma’qul maydonlar tog‘oldi adirliklari va suv o‘tadigan irrigatsiya tizimi yo‘nalishi bo‘ylab joylashtirilsa maqsadli ekanligi qayd etilgan. Ilmiy

tadqiqotchi olimlarning fikrini inobatga olgan holda, respublikamizning turli hududlarida ekma za’faron (shafran) ekish va ko‘paytirishni Farg‘ona vodiysi, barcha viloyatlarda mavjud tog‘oldi adirliklari, to‘qay joylarda, sug‘oriladigan bog‘larning qator oraliqlariga va bir muncha yerosti suvlari yaqin joylashgan maydonlarda iqlim holatidan kelib chiqqan holda keng masshtabli plantatsiyalarni tashkil etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, tarkibida kalsiyli tuzlar va unumdorligi o‘rtacha bo‘lgan tuproqlarda ekma za’faron o‘sishi mumkin, ammo bu yerlarda hosildorlik sezilarli darajada past bo‘ladi. O‘z navbatida, o‘simlikni yetishtirish uchun eng maqbul tuproqlar – bo‘z, soz, qumloq, unumdor va oz bo‘lsa-da, suv bilan ta’minlangan hududlarda ekish tavsiya etiladi. Demak, edafik sharoit ham o‘simlikning o‘sish va rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Bundan tashqari, za’faron o‘simligini namlik to‘plangan va kislotalik pH nisbati 8,5 dan yuqori bo‘lgan yerlarda o‘stirish mumkin, unumdor tuproqlar za’faronning yaxshi o‘sishi va serhosil bo‘lishini ta’minlaydi.

Ekma za’faronni ekish va ko‘paytirish: Ekma za’faronni ekish muddati hududning tuproq va iqlim sharoitiga qarab aniqlanadi. Ekma za’faron yetishtiriladigan mamlakatlarda tuproq va iqlim sharoitini inobatga olgan holda ekish muddati iyul oyidan sentabr oyigacha belgilanadi.

O‘simlik ekilgan vaqtdan to generativ fazaga kirishi va gullash davrigacha 55–63 kunni talab etishi nazarda tutilgan. Bu vaqtda, ya’ni sentabr oyining oxiri va oktyabr oyining boshida (havo harorati 5–7 °C da gullash jarayoni to‘xtaydi), o‘simlik hosili terib olinadi. O‘simlikning tuganakpiyozlari 60 x 70 x 90 sm oralik qatorlarda, 8 dan 15 sm gacha chuqurlikda, gektariga bir tonna hisobiga ekiladi. Bu me’yor, plantatsiyada agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning qulay bo‘lishini (mexanizatsiya yordamida amalga oshiriladigan tadbirlar) hamda qish mavsumida o‘simliklarni izg‘irin sovuqdan muhofaza qilish choralarini ta’minlaydi.

Xulosa: Ekma za’faron (Crocus sativus L.) – yuqori qiymatli dorivor va ziravor o‘simlik bo‘lib, uni yetishtirish uchun yorug‘likka boy, unumdor, yaxshi namlangan tuproqlar va mo‘’tadil iqlim sharoiti talab etiladi. O‘simlik tuganakpiyoz orqali ko‘payadi, ekish muddati esa hudud iqlimiga qarab belgilanadi. To‘g‘ri agrotexnik tadbirlar orqali za’faronni samarali yetishtirish va plantatsiyalarni tashkil etish orqali mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Turkiya Respublikasi gi vazirligi hamda “Denizbank” hamkorligida tayorlangan “100 ta kitob” issiqlik sifatida berilgan.

2. Askerov A. Shafran. – Boku: Azerneshr, 1934. – 113 b.

3.Garagesov T.G., Gasimov K.G., Serkerov S.V., Novruzov. E.N., Murodov P.Z., Shaxmuradov I.A. Bio-tadqiqot strategiyasi Absheron za'faron populyatsiyasi (Crocus sativus L.) // AMEA-ning Xəbərlari (biologiya va tibbiyot elmlari), 2017. - Cild 70. № 2. – 164-173- betlar.

4. Мирзаева М. А. Акрамов ШШУ Биология сортов сахарной свеклы, вредителей, болезней и способы борьбы с ними //Universum: технические науки. – 2020. – №. 11-3. – С. 80.

5. Маматожиев Ш. И., Мирзаева М. А., Шокирова Г. Н. Влияние технологии допосевной обработки на содержание влаги в почве //Universum: технические науки. – 2021. – №. 6-3 (87). – С. 46-49.

6. Мирзаева М. А. Акрамов ШШУ Биология сортов сахарной свеклы, вредителей, болезней и способы борьбы с ними //Universum: технические науки. – 2020. – №. 11-3. – С. 80.

7. Мирзаева М. А. Методы сушки винограда //Universum: технические науки. – 2020. – №. 5-2 (74). – С. 21-23.

8. Абдукаримова Д. Н., Мирзаева М. А. Исследование Структуры, Составов И Физико-Химических Свойств Ингредиентов Для Разработки

Композиционных Химических Препаратов //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №.

9. Мирзаева М. А., Рахмоналиева Н. Н., Холматов С. Н. У. Изучение способов хранения семян //Universum: технические науки. – 2021. – №. 6-3 (87). – С. 50-52.

10. Mirzaeva M. A., Abdurakhmonov S. Z., Ehrgasheva N. Biology of beetroot sorts, pests and diseases and methods of treatment //Актуальная наука. – 2019. – №. 4. – С. 36-38.

11. Mirzayeva M. A., Mullajonova S. S., Mirzaikromov M. A. The grape processing technology for production //International Journal of Advance Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 04. – С. 7-10.209. Мирзаева М. А., Рахмоналиева Н. Н., Абдуллаев Д. Д. У. Совершенствование методов хранения рассады //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-3 (81). – С. 93-95.